

RUS TILIDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ: IFODA XUSUSIYATLARI, QO'LLANILISHI VA DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI

Baxranova Shaxnoza Abrorovna

Samarqand Zarmed universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola rus tilidagi og'zaki va yozma nutqning ifoda xususiyatlari, qo'llanishi va farqlari haqida batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda og'zaki va yozma nutqning strukturaviy va kommunikativ jihatları solishtirilib, ular orasidagi asosiy farqlar va o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan. Maqolada nutq shakllarining til o'rgatishdagi ahamiyati, ularning ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi va o'quvchilarga qanday samarali yondashuvlar orqali o'rgatilishi haqida ham so'z boradi. Yozma va og'zaki nutq orasidagi farqlar tilshunoslik va ta'limda alohida yondashuvni talab qiladi va o'qituvchilar uchun muhim amaliy maslahatlar beradi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, yozma nutq, kommunikativ nutq, sintaksis, stilistika, nutqning ifodaviy xususiyatlari, til o'rgatish, tahlil.

Abstract. This article provides a detailed analysis of the expressive features, uses, and differences of oral and written speech in the Russian language. The study compares the structural and communicative aspects of oral and written speech, highlighting the main differences and distinctive features between them. The article also discusses the importance of speech forms in language teaching, how they are used in the educational process, and what effective approaches they can be used to teach students. The differences between written and oral speech require a special approach in linguistics and education and provide important practical advice for teachers.

Key words: oral speech, written speech, communicative speech, syntax, stylistics, expressive features of speech, language teaching, analysis.

Аннотация. В статье дается подробный анализ выразительных особенностей, особенностей употребления и различий устной и письменной речи в русском языке. В исследовании сравниваются структурные и коммуникативные аспекты устной и письменной речи, выделяются основные различия и уникальные особенности между ними. В статье также обсуждается значение речевых форм в обучении языку, как они используются в

образовательном процессе и какие эффективные подходы можно использовать для обучения им студентов. Различия между письменной и устной речью требуют особого подхода в лингвистике и образовании и дают важные практические советы учителям.

Ключевые слова: устная речь, письменная речь, коммуникативная речь, синтаксис, стилистика, выразительные средства речи, обучение языку, анализ.

Kirish. Til inson tafakkuri va muloqotining eng asosiy vositasi bo‘lib, u ikki asosiy shaklda – og‘zaki va yozma nutq orqali namoyon bo‘ladi. Har bir til, jumladan rus tili ham, bu ikki shaklda o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarga ega. Mazkur maqolada rus tilidagi og‘zaki va yozma nutqning ifoda xususiyatlari, qo‘llanish sohasi va ularning differensial (ajratib turuvchi) belgilariga e‘tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rus tilshunosligida og‘zaki va yozma nutqning xususiyatlarini o‘rganishga doir ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Jumladan, akademik V.V. Vinogradov, L.P. Krysin, N.S. Valgina kabi olimlarning ishlari bu borada asosiy manba sifatida qaraladi. Ular og‘zaki nutqning jonli, kontekstual va ko‘p hollarda grammatik jihatdan soddalashtirilgan bo‘lishini ta’kidlaganlar. Xususan, V.V. Vinogradov og‘zaki nutqdagi ekspressivlik va spontanlikni yozma nutq bilan solishtirib tahlil qilgan.

Shuningdek, A.A. Leontyev va I.A. Zimnyaya singari psixolingvistlar nutq faoliyatining psixologik asoslarini o‘rganib, og‘zaki va yozma nutqni shaxsning ongli faoliyati nuqtai nazaridan farqlashgan. Ularning izlanishlariga ko‘ra, yozma nutqni yaratish jarayoni ongli, rejalashtirilgan va tahliliy bo‘lsa, og‘zaki nutq ko‘proq avtomatlashgan va hissiy bo‘ladi.

So‘nggi yillarda kommunikativ yondashuv asosida olib borilayotgan tadqiqotlar (masalan, O.V. Aleksandrova, N.D. Golev) og‘zaki va yozma nutqdagi stilistik vositalarning farqlariga, ularning ijtimoiy funksiyalariga chuqurroq e‘tibor qaratmoqda. Bu yondashuvlar zamonaviy lingvodidaktikada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda taqqoslovii va tizimli tahlil metodlari asosiy usul sifatida qo‘llanildi. Og‘zaki va yozma nutqning fonetik, grammatik, leksik va stilistik jihatlari tahlil qilinib, ularning asosiy differensial belgilariga e‘tibor qaratiladi. Tadqiqotda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Nazariy tahlil – mavjud ilmiy manbalar asosida og‘zaki va yozma nutqning asosiy belgilari aniqlab olindi.

Empirik misollar – rus tilidagi real og‘zaki va yozma nutq namunalari (suhbatlar, intervyular, matnlar) foydalanildi.

Taqqoslash – og‘zaki va yozma nutq xususiyatlari jadval ko‘rinishida taqqoslandi.

Xulosa chiqarish – umumlashtirish asosida har ikki shaklning ahamiyati va tilshunoslikdagi o‘rni belgilandi.

Metodologik yondashuvlar tahliliy-eksplikativ xarakterda bo‘lib, mavzuni chuqur o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada lingvistik, psixolingvistik va stilistik yondashuvlarni ifodalaydi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida rus tilidagi og‘zaki va yozma nutq bir qancha asosiy farqlar bilan ajralib turishi aniqlandi. Og‘zaki nutqda fikr intonatsiya, tana harakati, mimika orqali kuchaytiriladi. Masalan: «Ты что, серьёзно?!» – bu gapda intonatsiya va yuz ifodasi muhim rol o‘ynaydi. Yozma nutqda esa ohang o‘rnini tinish belgilar egallaydi: «Ты что, серьёзно?!» – bu ifoda yozma shaklda yozilgan bo‘lsa-da, uning ohangi tinish belgilari orqali beriladi, ammo yuz ifodasi yo‘q.

Og‘zaki nutqda gaplar soddaroq va ko‘pincha qisqargan holda ishlatiladi: «Пошли!» (Ketyapmiz!) – bu bir so‘zli gap bo‘lib, kontekstga bog‘liq. Yozma nutqda esa aniqlik muhim, shu bois gap to‘liq bo‘ladi: «Мы решили отправиться в путь ранним утром.» (Biz erta tongda yo‘lga chiqishga qaror qildik.)

Og‘zaki nutq to‘g‘ridan-to‘g‘ri tinglovchiga qaratilgan: «Слушай, у меня есть идея!» – bu jonli muloqotda aytiladi, suhbatdoshga qaratilgan. Yozma nutqda esa matn keng auditoriyaga mo‘ljallanadi: «В данной статье рассматриваются особенности устной и письменной речи.» – bu ilmiy uslubga xos ifoda.

Og‘zaki nutqda so‘zlashuv uslubiga xos, qisqartirilgan va so‘zma-so‘z ifodalar ko‘p ishlatiladi: «Ну, типа, я не знаю...» – bu yerda «типа» suzish so‘zi sifatida ishlatilgan. Yozma nutqda esa bunday ifodalarga yo‘l qo‘yilmaydi: «Я затрудняюсь дать точный ответ на данный вопрос.» – bu aniq, rasmiy uslubdagi yozma jumla.

Og‘zaki nutq odatda kundalik hayotda, og‘zaki imtihonlarda, suhbatlarda qo‘llaniladi: Do‘stlar orasidagi suhbat: «Как дела? Всё нормально?» Yozma nutq esa ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar va badiiy adabiyotda ishlatiladi: Rasmiy

hujjatdan parcha: «Настоящим подтверждается участие студента в конференции...»

Muhokama. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, rus tilidagi og‘zaki va yozma nutq nafaqat shakl jihatidan, balki ularning kommunikativ maqsadi va qo‘llanish doirasiga ko‘ra ham farqlanadi. Bu farqlarni misollar yordamida ko‘rib chiqish mumkin.

Og‘zaki nutqda so‘zlar ohang, pauza, imo-ishora orqali boyitiladi. Masalan: «Ты серьёзно?!» – bu ifoda baland ohangda, ko‘z ochilgan holda aytilsa, hayratni bildiradi. Yozma shaklda esa bu ekspressivlikni faqat tinish belgilar orqali yetkazish mumkin: «Ты серьёзно?!» – lekin bunda yuz ifodasi va intonatsiya yo‘q, shuning uchun hissiyot cheklangan. Og‘zaki nutq odatda aniq kontekstda tushuniladi. Masalan: «Он там был... ну, ты понял.» – bu gapni faqat suhbat kontekstida to‘liq tushunish mumkin. Yozma nutqda esa bu kabi ifodalar tushunarsiz bo‘lib qoladi, shuning uchun u aniq, mustaqil bo‘lishi kerak: «Он находился в том же месте, о котором мы говорили ранее.»

Og‘zaki nutqda oddiy, qisqa gaplar ishlatiladi: «Пошли! Уже поздно!» Yozma nutqda esa bunday fikrlar ko‘proq murakkab sintaktik tuzilmalarda ifodalanadi: «Мы должны отправиться сейчас, потому что уже позднее время.»

Bugungi kunda yozma muloqotda og‘zaki nutq elementlarining keng kirib kelgani kuzatilmoqda. Masalan: Chatda: «Привет! Как дела? Всё ок?» – bu ifoda yozma bo‘lsa-da, og‘zaki suhbatga o‘xshaydi. Shuningdek, LOL, хаха, ммм, ага kabi so‘zlar og‘zaki nutqdan olingan bo‘lib, yozma muloqotda emotsiyani yetkazadi. Rus tilini o‘rganuvchilar ko‘pincha yozma nutqni o‘zlashtirishga ko‘proq e’tibor berishadi, ammo jonli muloqotda qiynalishadi. Shuning uchun o‘qituvchilar quyidagicha mashqlar bilan muvozanatni saqlashlari mumkin:

Og‘zaki topshiriq: "Представьте, что вы в магазине и покупаете хлеб. Что вы скажете продавцу?"

Yozma topshiriq: "Напишите короткое сообщение другу о ваших планах на выходные."

Bu misollar ko‘rsatadiki, og‘zaki va yozma nutq bir-biridan qat’iy farq qilsada, ular o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tizimlar sifatida mavjud. Har biri tilshunoslik va ta’limda alohida yondashuvni talab qiladi.

Xulosa. Og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi farqlar faqat tilning grammatik va leksik qoidalari bilan bog‘liq emas, balki muloqotning holati va maqsadiga ham

ta'sir qiladi. Og'zaki nutq ko'proq tezkor va spontandir, yozma nutq esa o'ylangan va tahlil qilingan bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar og'zaki nutq elementlarini yozma muloqotga olib kelmoqda, bu esa ularning chegaralarini yanada yashiradi. Til o'rgatishda ushbu farqlarni o'rgatish orqali o'quvchilarga samarali kommunikativ kompetensiya shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Введенская, Людмила Алексеевна, Людмила Григорьевна Павлова, and Елена Юрьевна Кашаева. "Русский язык и культура речи." Ростов н/Д: Феникс (2004): 181.
2. Введенская, Людмила Алексеевна, Людмила Григорьевна Павлова, and Елена Юрьевна Кашаева. "Русский язык и культура речи." Ростов н/Д: Феникс (2004): 181.
3. Введенская, Людмила, and Марина Черкасова. Русский язык и культура речи. Учебное пособие. Litres, 2022.
4. Атаева, Е. В., and Д. С. Малышева. "О функционировании дискурсивных слов в речи молодежи." Вестник гуманитарного факультета Ивановского государственного химико-технологического университета 4 (2009): 209-215.
5. Salimovich, S. B. (2022). RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(12), 129-131.
6. Salimovich, S. B. (2022). FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS. In Conference Zone (pp. 62-63).

Research Science and Innovation House